Qobilova Aziza Tursunovna	
Intellectual madaniyatni rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash texnologiyalari	833
Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich	
Biologiya, kimyo va geografiya fanlarni o'qitishda iqtidorli o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish	837
Sultanova N. B., Toshpo'latova N. I., Azimov B. I.	
Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ	840
Суяров Хуршид Бахриддинович	
Oliy ta'limda sun'iy intellektni boshqarishda rivojlangan chet davlatlar tajribasidan foydalanish usullari	844
Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi	
Variativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari	852
Turapova Ra'no Barat qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga og'zaki hisoblashni o'rgatish	857
Jurayeva Muhayyo Nematillayevna	
Trening jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	861
Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A.	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish	865
Turdiyev Umidjon Kamoliddinovich	
Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	868
Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna	
The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives)	873
Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli	
Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruksiya bilan uyg'unlashtirish	877
Yuldasheva Gulsanam Arken qizi	
Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов	881
Бахриева Шахноза Давроновна	
Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики"	886
Равшанова Иноят Эркиновна	
Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge"	889
Тагаева Тамара Баходировна	
Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi	892
D. S. Zokirova	
O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	895
Egamberdiyev Umidbek Xo'jayevich	
Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari	898
Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi	
Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish	901
Ortiqova Zulfiya Nurmuhammedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi	
Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari	905
Rustemov Muxamed Biysenbayevich	
The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture	908
Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna	



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
<i>Salixova Muhayyo Shakirovna</i>	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
<i>Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna</i>	
Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
<i>U. M. Utbasarova</i>	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi</i>	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
<i>Алибекова Лайло Рахмановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
<i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
<i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
<i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
<i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
<i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
<i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
<i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i>	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
<i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
<i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
<i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>	
O'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....	972
<i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
<i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongini shakllantirish.....	980
<i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinova</i>	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirgul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process	1014
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English	1019
Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi	
Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati	1025
G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omadxon Rahmonberdi qizi	
Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari	1028
Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari	1031
Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish	1034
Iminova Z. B.	
Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati	1038
Inayatova Nargisa Nishonboyevna	
O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish	1044
Kalmuratovna Venera Sultanova	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari	1049
Kamola Abdullayeva	
O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari	1052
Karimov Orif Obloqul o'g'li	
Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati	1055
Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna	
Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers	1060
Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri	1063
Makulov Shuxratjon Zokirovich	
Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar	1067
Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	1072
Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi	1075
Mansurova Umida Mansur qizi	
Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari	1081
Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi	
Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati	1084
Murodov Nozimjon Olimjonovich	
Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari	1088
Nafasova Jamila Turg'un qizi	
Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish	1093
Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi	1097
Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi	
Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli	1101
O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li	
Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari	1104
Orifjonova Nazokat Maribjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	1108
Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi	
Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari	1112
Ostanov Askarjon Nuriddinovich	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati ..	1131
Rahmatova Barnogul Karimjonovna	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma’mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
Сагиндилов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачеева Гульчебра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	



FIZIKA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING AMALIY KOMPETENSIYASINI TAJRIBALAR ORQALI SHAKLLANTIRISH

Sattorov Boburbek Zokirovich

34-umumiy o'rta ta'lim maktabi davlat muassasasi
fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning amaliy kompetensiyasini shakllantirish masalalari yoritilgan. Unda tajribalar o'tkazish orqali o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoni yechish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada o'quv jarayoniga tajriba asosida o'qitish yondashuvini integratsiya qilishning didaktik imkoniyatlari, innovatsion texnologiyalar va tajriba mashg'ulotlarining o'quvchilarda fizik tafakkur va kasbiy yo'nalganlikni rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: fizika ta'limi, amaliy kompetensiya, tajriba, eksperiment, metodika, mustaqil faoliyat, innovatsion texnologiya.

Abstract: This article discusses the formation of students' practical competence in the process of teaching physics. The methodology for developing students' ability to apply theoretical knowledge in practice, foster independent thinking, analytical skills, and problem-solving abilities through experiments is analyzed. The didactic potential of integrating experiment-based learning into the educational process, as well as the role of innovative technologies and laboratory activities in developing students' physical thinking and professional orientation, is also substantiated.

Key words: physics education, practical competence, experiment, methodology, independent activity, innovative technologies.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы формирования практической компетенции учащихся в процессе преподавания физики. Анализируется методика развития у школьников умений применять теоретические знания на практике, развивать самостоятельное мышление, аналитические способности и навыки решения задач посредством проведения физических экспериментов. Также раскрываются дидактические возможности интеграции экспериментального обучения в учебный процесс, роль инновационных технологий и лабораторных занятий в развитии физического мышления и профессиональной направленности учащихся.

Ключевые слова: обучение физике, практическая компетенция, эксперимент, методика, самостоятельная деятельность, инновационные технологии.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli1 Qonun, "2021–2023-yillarda umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi" hamda "O'zbekiston–2030" strategiyasi kabi hujjatlar umumiy o'rta ta'limda sifat ko'rsatkichlarini oshirish, ayniqsa fanlarni chuqur o'rganish orqali o'quvchilarning amaliy va innovatsion salohiyatini rivojlantirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilamoqda.

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchilarda faqat nazariy bilimlarni emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirishni ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, fizika fanini o'qitishda tajriba va amaliy mashg'ulotlar asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Chunki fizika – bu nafaqat nazariy qonun va formulalarga asoslangan fan, balki real hayotdagi hodisa va jarayonlarning mohiyatini amaliy tahlil qilish imkonini beruvchi tajriba fanidir.

O'quvchilarning amaliy kompetensiyasini shakllantirish – ularning fizika qonunlarini kuzatish, tahlil qilish, tajribalar asosida xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishni anglatadi. Amaliy kompetensiya o'quvchilarning ijodiy tafakkurini, mustaqil fikrlashini, natijani baholay olishini hamda ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi. Shu bois, fizika fanini o'qitish jarayonida tajriba metodini didaktik

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonun: <https://lex.uz/docs/-5013007>



asosda to'g'ri tashkil etish – o'qituvchining kasbiy mahoratini, o'quvchilarning esa fanga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi.

Hozirgi kunda raqamli ta'lim muhiti, virtual laboratoriyalar, multimediya vositalari va modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish orqali fizika tajribalarini o'tkazish imkoniyatlari yanada kengaymoqda. Bunday yondashuv o'quvchilarga murakkab fizik jarayonlarni ko'rgazmali, interaktiv va tahliliy tarzda o'rganish imkonini beradi. Natijada, ular nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, balki ularni real hayotiy muammolarni hal etishda qo'llay oladigan malakali shaxs sifatida shakllanadi.

Shunday qilib, fizika fanini o'qitishda tajribalar orqali amaliy kompetensiyani rivojlantirish – zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning ilmiy tafakkurini, mantiqiy fikrlashini va mustaqil ijodiy faoliyatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Amaldagi umumta'lim maktablarida fizika fanining eksperimental qismini o'qitish ko'p hollarda yetarli darajada metodik asosga ega emasligi, laboratoriya jihozlarning yetishmasligi, o'quvchilarning tajriba asosidagi faoliyatga bo'lgan qiziqishining sustligi hamda o'qituvchilarning innovatsion yondashuvlarga tayyor emasligi kabi muammolar mavjud. Bu esa o'quvchilarning fizik hodisalarni chuqur tushunishi va amaliy qo'llay olish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktab o'quvchilarining fizikadan eksperimental tayyorgarligini kompetentli yondashuv asosida rivojlantirish, bu boradagi nazariy va amaliy asoslarni ishlab chiqish, ta'lim jarayonini modellashtirish hamda metodik ta'minotni takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi. Bu metodikaning ishlab chiqilishi o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, muammoni aniqlash va uni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek kasbiy yo'naltirilgan ta'limga puxta tayyorlashga xizmat qiladi.

Nazariy qism. Eksperimental tayyorgarlikning mazmuni asosan laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar, tajriba sinovlari, kuzatishlar va natijalarni qayta ishlash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu esa fizika fanining ilmiy-tadqiqot xarakterini ochib beradi va o'quvchilarning tafakkurini chuqurlashtirishda, texnologik savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlarda eksperimental tushunchasi o'quvchilarning laboratoriya ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda o'quvchilarning kuzatish, tajriba qurish, o'lchovlar o'tkazish, ilmiy gipoteza ilgari surish va natijalarni tahlil qilish faoliyati yetakchi o'rinni egallaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetentli yondashuvning nazariy asoslari N.F. Talyzina, A.V. Khutorskoy, V.V. Serikov, I.A. Zimnyaya kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, I.A. Zimnyaya ^[3] kompetentlikni shaxsning bilim, ko'nikma, tajriba va qadriyatlari asosidagi faoliyatga tayyorgarligi sifatida talqin etadi. A.V. Khutorskoy ^[4] esa fanlararo kompetensiyalar tizimini ishlab chiqib, o'quvchilar uchun muhim bo'lgan universal faoliyat turlarini belgilab beradi.

O'zbekistonlik pedagog olimlar – B.M. Mirzayev, A.I. Nazarov, Z.E. Abdullaeva, U.I. Inoyatov, F.B. Raxmonovlar tomonidan maktab fizika ta'limida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, o'qitish metodlarini takomillashtirish bo'yicha muhim ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, B.M. Mirzayev eksperimentni o'quvchining ilmiy tafakkurini rivojlantiruvchi asosiy vosita sifatida baholaydi va laboratoriya ishlarining mantiqiy tuzilmasini taklif etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida o'quvchilarning eksperimental ko'nikmalari shakllanish dinamikasi kuzatildi, eksperiment natijalari tahlil qilindi va baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fizika o'quv fanida o'quvchilarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni zamonaviy pedagogik talablar asosida tajribaviy faoliyatni kuchaytirishga tayanadi. O'quvchilarning nazariy bilimlarni ongli o'zlashtirishi, ular orasidagi bog'lanishlarni tushunishi hamda fizik qonuniyatlarning real hayotdagi qo'llanilishi bo'yicha tasavvurga ega bo'lishi amaliy mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil etilishiga bevosita bog'liq. Ushbu tadqiqotda 7–9-sinflarda fizik tajribalar asosida amaliy kompetensiyani shakllantirish jarayoni o'rganildi va natijalar solishtirma tahlil orqali baholandi. O'quvchilar ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi an'anaviy darslar asosida ta'lim oldi, tajriba guruhi esa darslarning 40 foizi tajribalar, kichik laboratoriya ishlari, modellashtirish, virtual laboratoriyalar bilan boyitilgan holda tashkil etildi. Ayniqsa mexanika, optika, elektr va magnit hodisalariga oid mavzularda tajribalar o'tkazildi.



Tahlil jarayonida o'quvchilarning amaliy faoliyat ko'nikmalarini baholash uchun to'rtta mezon belgilandi:

- 1) nazariy bilimlarning amaliy vaziyatga mos qo'llanishi;
- 2) tajribani o'tkazish ketma-ketligini tushunish va bajarish sifati;
- 3) natijalarni qayd etish, o'lchash asboblardan foydalanish madaniyati;
- 4) tajriba asosida xulosa chiqarish va asoslash. Bu mezonlar bo'yicha 100 ballik tizimda baholash o'tkazildi.

Tajriba davrida o'quvchilar har haftada kamida bir marta kichik tajribalar o'tkazib borishdi, bu esa ularning mustaqil fikrlashi va amaliy malakalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi o'quvchilari tajribalarni tashkil etish, fizik asbob-uskunalar bilan ishlash, natijalarni grafik shaklda ifodalash va xulosalash ko'nikmalarida sezilarli ustunlikka ega bo'ldi. Ayniqsa, o'lchash aniqligi, tajriba xatosini hisoblash, kuzatish natijalarini tahlil qilish kabi elementlar ularning ilmiy tafakkurini yanada rivojlantirdi. Nazorat guruhi o'quvchilari nazariy savollarga nisbatan ancha yaxshi javob bergan bo'lsalar-da, amaliy topshiriqlarda, ayniqsa tajribani mustaqil tashkil qilishda qiyinchiliklarga duch kelishdi. Bu holat fizik ta'limda nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unligining ahamiyatini tasdiqlaydi.

Quyidagi jadvalda tajriba va nazorat guruhlar o'rtasidagi asosiy farqlar umumlashtirilgan.

1-jadval: Tajriba guruhi va nazorat guruhi o'quvchilarining amaliy kompetensiya natijalari taqqoslanishi

Ko'nikma mezonlari	Nazorat guruhi (100 ballik)	Tajriba guruhi (100 ballik)	Faq
Nazariy bilimni amaliy qo'llash	62	81	+19
Tajribani mustaqil tashkil etish	58	86	+28
O'lchash asboblardan foydalanish madaniyati	55	88	+33
Kuzatish va xulosa chiqarish	60	85	+25
Umumiy o'rtacha ko'rsatkich	58,7	85	+26,3

Jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhi barcha mezonlar bo'yicha nazorat guruhidan ancha yuqori natijalarga erishdi. Ayniqsa o'lchash asboblari bilan ishlash ko'rsatkichidagi farq juda katta bo'ldi. Bu esa fizik ta'limda laboratoriya mashg'ulotlari va kichik tajriba faoliyatlari o'quvchilar kompetensiyasini shakllantirishda hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi. O'quvchilar tajriba davomida energiya saqlanish qonuni, Nyuton qonunlari, optik hodisalarning tabiati, elektr zanjirlaridagi bog'lanishlar kabi tushunchalarni real hodisalar vositasida o'rgana olishdi. Bu jarayon ularning tushunchalarni chuqurroq anglashiga, mantiqiy fikrlash mashqini bajarishiga yordam berdi.

O'quvchilarning laboratoriya faoliyatiga bo'lgan qiziqishi ham o'rganildi. Tajriba guruhi o'quvchilarining 78 foizi laboratoriya ishlarini "juda qiziqarli" deb baholadi, 16 foizi "qiziqarli", 6 foizi esa "o'rtacha" deb bildi. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich ancha past bo'lib, atigi 34 foiz o'quvchi laboratoriya ishlariga qiziqishini bildirdi. Bu holat tajribali darslar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishini ko'rsatadi. O'quvchilar o'zlari bajargan tajriba natijalaridan mamnun bo'lib, o'zlarining ilmiy tadqiqotga moyilligini oshira boshladi.

Tahlil davomida aniqlangan yana bir muhim omil shundaki, o'quvchilar tajriba jarayonida xatolarni tahlil qilish va bartaraf etish ko'nikmasiga ega bo'la boshladi. Masalan, o'lchash aniqligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, takroriy o'lchash orqali o'rtacha qiymat olish, 1-tartibli va 2-tartibli xatolarni farqlash kabi amaliy malakalar shakllandi. Bu ko'nikmalar "ilmiy fikrlash kompetensiyasi"ning asosiy elementlaridan biri bo'lib, o'quvchilarni kelajakdagi ilmiy faoliyatga tayyorlaydi.

O'quvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlarda ular tajribaviy ta'limning afzalliklarini aniq qayd etishdi. O'quvchilarning fikriga ko'ra, dars jarayonida tajribalar qo'llanganda o'quvchilarning darsga jalb etilish darajasi yuqori bo'ladi, dars davomida faol muloqot paydo bo'ladi, nazariy tushunchalar osonroq eslab qoladi. Shuningdek, tajribalarni kichik guruhlarda bajarish o'quvchilar o'rtasida hamkorlik, muloqot, rollarni taqsimlash kabi ijtimoiy kompetensiyalarni ham kuchaytiradi.

Tajriba metodikasi qo'llanilganda o'quvchilarning muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari ham rivojlanganligi kuzatildi. Masalan, elektr zanjirlarini yig'ish jarayonida o'quvchilar qarshilikni o'lchash, tok kuchini o'zgartirish orqali natijalarni kuzatish, turli sxemalarni solishtirish, o'zlari ishlab chiqargan modelni himoya qilish kabi mashg'ulotlarda ishtirok etishdi. Bu jarayon ularning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirdi. Ayniqsa, "Nima uchun?", "Qanday?", "Agar shunday qilinsa natija qanday bo'ladi?" kabi savollar yordamida o'quvchilarning ilmiy muloqotga kirishish tezligi oshdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, amaliy kompetensiyani shakllantirishda o'quvchilar tomonidan eng ko'p uchraydigan qiyinchiliklar ham aniqlandi. Bular – tajriba ketma-ketligini noto'g'ri tashkil etish, natijalarni noto'g'ri qayd etish, o'lchash xatolarini tushunmaslik, asbob-uskunalaridan ehtiyotsiz foydalanish kabi muammolardir. Biroq



tajriba guruhida bu muammolar bosqichma-bosqich kamayib bordi. Darslar davomida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarga qo'shimcha ko'rsatmalar berilgani, nazorat jadvallari asosida ishlar yuritilgani ushbu muammolarni kamaytirishga yordam berdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fizik tajribalar orqali o'quvchilarning amaliy kompetensiyasi sezilarli darajada rivojlanadi. Tajriba jarayonlari o'quvchilarda nafaqat ilmiy tasavvurlarni, balki masalaga tizimli yondashuv, eksperimentni rejalashtirish, ma'lumot yig'ish, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Bundan tashqari, tajribaviy ta'lim o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, o'z fikrlarini asoslab berish, kuzatish natijalarini dalillash kabi kommunikativ kompetensiyalarni ham boyitadi. Tajriba asosidagi ta'lim jarayonida o'quvchilar orasida hamkorlik, o'zaro fikr almashish va birgalikda natija chiqarish madaniyati shakllanadi. Bu kompetensiyalarni rivojlantirish o'quvchilarning keyingi bosqichlardagi o'qish va kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kompetentli yondashuv asosida maktab o'quvchilarining fizikadan eksperimental tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi samaradorligini oshirish mumkin. Buning uchun tegishli pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, laboratoriya jihozlarini yetarli darajada ta'minlash va o'quvchilarni tadqiqot faoliyatiga jalb etishni davom ettirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Khutorskoy, A.V. Klyuchevyye kompetentsii kak komponent lichnostno-oriyentirovannoy obrazovatelnoy paradigmy // Narodnoye obrazovaniye. – 2003. – № 5. – S. 58–64.
2. Serikov, V.V. Lichnostno-oriyentirovannoye obrazovaniye: poisk novoy paradigmy. – M.: Akademiya, 2011. – 240 s.
3. Mirzayev, B.M. Fizika darslarida eksperimental metodlardan foydalanish. – T.: O'qituvchi, 2007. – 176 b.
4. Nazarov, A.I. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fanini o'qitish metodikasi. – T.: TDPU, 2015. – 148 b.
5. Abdullayeva, Z.E. Kompetensiyaviy yondashuv asosida fizika fanini o'qitish metodlari. – T.: Fan, 2020. – 210 b.
6. Inoyatov, U.I. Fizika darslarida o'quvchilarning eksperimental tayyorgarligini shakllantirish. – T.: TDPU, 2018. – 132 b.
7. Voprosy metodiki prepodavaniya fiziki v shkole / Pod red. E.M. Muravyevoy. – M.: Prosveshcheniye, 2004. – 304 s.
8. Qodirov, A. Fizikadan tajribalar o'tkazish metodikasi. – T.: O'zbekiston, 2002. – 144 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo'lgan ta'lim strategiyasi" to'g'risidagi farmoni, PQ-312-son, 2022-yil 28-aprel.
10. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti (fizika fani bo'yicha). – T.: Xalq ta'limi vazirligi, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.